



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i06.055>

B.X.MATBABAYEVNING POP (BOB) SHAHRI TARIXIGA OID TADQIQOTLARI: TARIXSHUNOSLIK TAHLILI

A.A. Aloxunov

FarDU O‘zbekiston-Xitoy arxeologiya

qo‘shma kafedrası dotsenti,

<https://orcid.org/0000-0002-2210-990X>

B.M. Axunbabayeva

FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada B.Matboboyevning Pop (o‘rta asrlardagi Bob) shahri tarixiga bag‘ishlangan tadqiqoti tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda shahar lokalizatsiyasi masalasi, avvalgi arxeologik izlanishlar natijalari hamda muallif tomonidan olib borilgan muntazam dala tadqiqotlarining ilmiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yozma manbalar, arxeologik materiallar va numizmatik ma‘lumotlarni kompleks qo‘llash orqali Bob shahrining joylashuvi, xronologiyasi va tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashda qo‘llangan metodologik yondashuvlar tahlil qilingan. Maqolada B.Matboboyev tadqiqotining Farg‘ona vodiysi o‘rta asr shaharlari tarixini o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Pop shahri, Bob shahri, B.Matboboyev, Farg‘ona vodiysi, arxeologik tadqiqotlar, lokalizatsiya, tarixshunoslik, numizmatika, stratigrafiya, o‘rta asr shaharlari, arxeologik manbalar, yozma manbalar.

Аннотация. В данной статье с историографической точки зрения проанализировано исследование Б. Матбобоева, посвящённое истории города Поп (средневекового Боба). В работе освещены вопросы локализации города, результаты предыдущих археологических исследований, а также научное значение систематических полевых работ, проведённых автором. Кроме того, проанализированы методологические подходы, применённые для определения местоположения, хронологии и этапов исторического развития города Боб на основе комплексного использования письменных источников, археологических материалов и нумизматических данных. В статье раскрываются место и значение исследования Б. Матбобоева в изучении истории средневековых городов Ферганской долины.

Ключевые слова: город Поп, город Боб, Б. Матбобоев, Ферганская долина, археологические исследования, локализация, историография, нумизматика, стратиграфия, средневековые города, археологические источники, письменные источники.

Abstract. This article provides a historiographical analysis of B. Matboboyev’s research on the history of Pop (medieval Bob) city. The study examines the issue of the city’s localization, reviews the results of previous archaeological investigations, and highlights the scholarly significance of the systematic fieldwork conducted by the author. In addition, it analyzes the methodological approaches used to determine the location, chronology, and stages of historical development of Bob city through the integrated application of written sources, archaeological materials, and numismatic evidence. The article reveals the role and significance of B. Matboboyev’s research in the study of the history of medieval cities in the Fergana Valley.

Keywords: Pop city, Bob city, B. Matboboyev, Fergana Valley, archaeological research, localization, historiography, numismatics, stratigraphy, medieval cities, archaeological sources, written sources.

KIRISH. O‘rta asr Sharq geograflari – al-Istaxriy, al-Muqaddasiy, Ibn Havqal asarlarida Shimoliy Farg‘onada joylashgan bir qancha shaharlar – Axsikat, Koson, Bob, Asht, Tisxan, Jidg‘il va boshqalar tilga olinadi[3]. Bu shaharlarning bir qismi – Axsikat, Koson, Asht – arxeologik yodgorliklar yoxud hozirgi shaharlarning qadimiy qismlari bilan allaqachon aniqlangan bo‘lsa, boshqalarining, jumladan Bob (Pop) shahrining tarixi uzoq vaqt davomida deyarli o‘rganilmagan, hatto uning joylashgan o‘rni haqida adabiyotda noto‘g‘ri tasavvur mavjud edi.

Mana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan tadqiqotlardan biri – arxeolog B.X.Matbabayevning «О возникновении и этапах развития города Пап (Баб)» nomli maqolasidir[16]. Quyida ushbu maqola tarixshunoslik nuqtai nazaridan – uning manba negizi, metodologiyasi, asosiy xulosalari va ilmiy ahamiyati jihatidan – tahlil qilinadi. Maqsad muallifning o‘z so‘zlarini takrorlash emas, balki uning tadqiqotini yaxlit tarzda bayon etish va shaharsozlik tarixi tarixshunosligidagi o‘rnini belgilashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqola yozilgunga qadar Pop shahrining tarixi arxeologik jihatdan juda kam o‘rganilgan edi. Bundan tashqari, ba’zi nashrlarda shaharning joylashgan o‘rni noto‘g‘ri ko‘rsatilgan. Faqat O.G.Bolshakov hammualliflik qilgan fundamental asarda o‘rta asr Bobini hozirgi Pop tuman markaziga joylashtirgan edi[4], biroq bu fikr keng arxeologik asosga ega emas edi. Demak, B.Matboboyev tadqiqotining birinchi vazifasi – shaharning aniq lokalizatsiyasini arxeologik dalillar bilan tasdiqlash bo‘lgan.

Maqolaning diqqatga sazovor tomoni – muallif o‘z tadqiqotini boshlashdan oldin shu hududda olib borilgan barcha avvalgi ishlarni ketma-ket sanab o‘tishi va ularga tanqidiy baho berishidir. Jumladan, 1946–1948 va 1950–1952-yillarda A.N.Bernshtam rahbarligidagi

ekspeditsiyalar Ayrtom, Munchoqtepa, Belandtepa (Balandtepa) yodgorliklarida dastlabki kuzatishlar olib borgan va ularni X–XI asrlarga oid o‘rta asr manzilgohlari sifatida aniqlagan[6]; Arxeologiya instituti xodimi I.A.Axrarov mazkur hududda qo‘shimcha kuzatish ishlarini amalga oshirgan; 1964-yilda Y.G‘.G‘ulomov rahbarligidagi Farg‘ona otryadi G‘arqiz va Munchoqtepa antik yodgorliklarini ko‘zdan kechirgan[14]; 1983-yilda Namangan otryadi Balandtepada yodgorliklar svodini tuzish doirasida shurf qazigan, biroq ishni oxiriga yetkazmagan[13].

B.Matboboyev bu ma‘lumotlarni inkor etmaydi, aksincha ularni o‘z izlanishining boshlang‘ich nuqtasi sifatida qabul qiladi va 1987-yildan boshlab olib borilgan muntazam, yetti yillik dala tadqiqotlari bilan boyitadi. Shu tariqa maqola ikki vazifani bajaradi: u bir tomondan o‘zidan oldingi tadqiqotlarni umumlashtirib, ularga ilmiy baho bersa, ikkinchi tomondan mutlaqo yangi material asosida masalani sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi. Ayni shu xususiyat maqolani tarixshunoslik nuqtai nazaridan alohida qimmatli qiladi.

Boqijon Xoshimovich tadqiqotining o‘ziga xos jihati – yozma manbalar bilan arxeologik materiallarni uzviy bog‘lab tahlil qilishidir. Muallif quyidagi manba turlaridan foydalangan: o‘rta asr geograflarining ma‘lumotlari; V.V.Bartoldning «Туркестан в эпоху монгольского нашествия» asari; A.M.Belenitskiy, I.B.Bentovich, O.G.Bolshakovning «Средневековый город Средней Азии» монографияси[4]; N.Y.Bichurinning xitoy manbalariga asoslangan ma‘lumotlari[7]; Z.M.Boburning «Boburnoma» asaridagi Bob qal‘asi haqidagi xabari[2].

Bundan tashqari, muallif numizmatika sohasidagi mutaxassislar – O.I.Smirnova, N.V.Ivochkina, M.Ishoqov, L.Baratova – tomonidan aniqlangan tangalar (xitoy «ushu» va «kay yuan tun bao» tangalari, sug‘d tangalari, somoniy fulslar, O‘zgand tangalari) xulosalaridan xronologik mezon sifatida foydalangan[9;18]. Arxeologik usullar jihatidan shurf va qazishma ishlari, stratigrafik tahlil, keramika tipologiyasi hamda me‘moriy qoldiqlarni o‘rganish keng qo‘llanilgan. Bu ko‘p qirrali va kompleks metodologik yondashuv bo‘lib, tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshiradi hamda uni shunchaki tasviriy tadqiqotdan farqlantirib, ilmiy jihatdan asoslangan tadqiqotga aylantiradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

To‘plangan materiallar asosida B.Matboboyev Bob shahrining tuzilishini aniqladi: sitadel (ark) – Balandtepaning janubiy-sharqiy qismi; ichki shahar – Balandtepaning shimoliy va shimoliy-g‘arbiy qismi; shahar atrofi (prigorod) – Balandtepadan shimol va g‘arbda joylashgan Munchoktepa – Ayrtom shahri; shahar nekropoli – Munchoktepa I va II.

I davr – eramizning dastlabki asrlari. Bu davrga oid materiallar asosan sitadelning quyi qatlamlaridan, ichki shahar qazishmasidan va shahar nekropolidan olingan. Yupqa devorli, yaxshi pishirilgan, to‘q jigarrang yoki to‘q qizil angob bilan qoplangan sopol buyumlar, shuningdek sitadel devorining qoldiqlari (paxsa va xom g‘isht qatlamlaridan iborat, qalinligi 1,60 m, balandligi 1,20 m) aniqlangan. Bu ma‘lumotlar sitadelning shaharning eng qadimiy yadrosi – qal‘a-manzilgoh sifatida shakllanganidan dalolat beradi[15]. Uning dastlabki maydoni taxminan 100×90 m, umumiy maydoni esa 2,5 gektarga yaqin bo‘lgan.

II davr – V–VIII asrlar. Bu davr eng boy arxeologik material bilan tavsiflanadi: ko‘p sonli charx va qo‘lda yasalgan sopol buyumlar, ikki kamerali xumdondan iborat ishlab chiqarish majmuasi (Shimoliy Farg‘onada hozirgacha yagona hisoblanadi), xitoy va mahalliy tangalar, shu jumladan 63 tangadan iborat xazina topilgan. Muallif yozma manbalar asosida bu davrda Bob Turkiy xoqonlik tarkibiga kirganini, G‘ovasoy sug‘orish rayonining markaziga aylanganini va qo‘shni Koson bilan raqobatlashgan, hajmi jihatidan undan ham ustun turgan yirik shaharga aylanganini ko‘rsatadi. VIII asr ikkinchi yarmida sitadel va ichki shaharda hayot susayib, bu yerdan keyingi davr qatlamlari topilmaganini qayd etadi.

III davr – somoniylar-qaraxoniylar davri (IX–XIII asrlar). Bu davrda shahar Munchoqtepa (Ayrtom shahri) hududida davom etgan, ammo hududning keyinchalik qayta rejalashtirilishi (paxta dalalari, g‘isht zavodi) sababli material nisbatan kam saqlangan. Shunga qaramay, 1989-yilda 36 ta somoniy fulsidan iborat tanga xazinasini, somoniy formatidagi g‘ishtlar, chiroqlar, shisha idish parchalari, sopol quvurli kanalizatsiya qoldiqlari va hammom qoldiqlari topilgan. Bu davr shaharning hunarmandchilik markaziga aylanganidan, jumladan temir va boshqa metal konlariga yaqinligi bilan bog‘liq metallurgiya faoliyatidan dalolat beradi[8]. Ayni shu davrga oid O‘zgand shahrida zarb etilgan yakka tangalar ham Munchoqtepa – Ayrtom shahrida aniqlangan[10], bu esa shaharning mintaqaviy savdo aloqalaridan dalolat beradi. Shuningdek, muallif bu davr materialining qo‘shni Axsiket shahrida ham kuchsiz ifodalanganini qiyosiy tarzda qayd etadi[1]. XIII asr boshida Bob boshqa Shimoliy Farg‘ona shaharlari qatori xorazmshoh Muhammad buyrug‘i bilan vayron qilingan deb taxmin qilinadi[3].

Keyingi, so‘ngi o‘rta asrlar materiallari nisbatan kam bo‘lib, asosan Langarbobotepa va Urdatepa hududlaridan topilgan sirlangan idishlar, chirog‘lar bilan ifodalanadi; xuddi shu davrda shahar nekropoli ham asta-sekin faoliyatini to‘xtatadi[17]. Muallif bu qismda «Boburnoma»dagi Bob qal‘asiga oid ma‘lumotni ham keltirib, shaharning keyingi tarixi va hozirgi tuman markazining janubiy qismiga ko‘chishini izchil tarzda ko‘rsatib beradi.

XULOSA

B.Matboboyev tadqiqoti bir necha jihatdan Shimoliy Farg‘ona shaharsozlik tarixi tarixshunosligiga muhim hissa qo‘shadi.

Birinchidan, u adabiyotda mavjud bo‘lgan Bob shahrining noto‘g‘ri lokalizatsiyasi masalasini hal qildi – arxeologik materiallar asosida shaharning hozirgi Pop tuman markazidan janubda, Sirdaryo qirg‘og‘ida joylashganini isbotladi va ba‘zi mualliflarning qadimiy Bobni Sang qishlog‘i o‘rnida deb hisoblash fikrini asossiz deb topdi.

Ikkinchidan, u stratigrafik ma‘lumotlarga asoslangan uch bosqichli davrlashtirish tizimini taklif etdi. Bunday aniq davrlashtirish tizimining mavjudligi keyingi tadqiqotchilar uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi va Shimoliy Farg‘onaning boshqa shaharlari (Axsikat, Koson) bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish imkonini beradi.

Uchinchidan, u shaharning deyarli ikki ming yillik uzluksiz tarixini isbotladi va uni Buyuk ipak yo‘lidagi muhim savdo-karvon markazlaridan biri sifatida ko‘rsatdi. Bu xulosani muallif

«Ulug‘ yul» kabi saqlanib qolgan toponimik ma’lumotlar va Qo‘qonga o‘tish joyi (paroma) izlarini keltirib, qo‘shimcha tasdiqlaydi.

To‘rtinchidan, u yozma va arxeologik manbalarni uyg‘unlashtirib tahlil qilish usulini namuna qilib ko‘rsatdi – bu metodologik jihatdan O‘rta Osiyo shaharsozlik tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega, chunki faqat bir turdagi manbaga tayanish to‘liq bo‘lmagan xulosalarga olib kelishi mumkin edi.

Shu bilan birga, muallif o‘zi ham barcha masalalarni hal qilingan deb hisoblamaydi: jumladan, ichki shaharning mudofaa inshootlari mavjudligi masalasini ochiq deb qoldiradi, chunki bu borada aniq fortifikatsiya qoldiqlari haligacha topilmagan. Bu – tadqiqotning ilmiy halolligini ko‘rsatuvchi muhim jihat bo‘lib, keyingi izlanishlar uchun aniq yo‘nalish belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Анарбаев А.А. Ахсикет в древности и средневековье (итоги и перспективы исследования) // Советская археология. 1988. №1. С. 178.
2. Бабур З.М. Бабур-намэ. События года 908 (1502—1503)/Пер. М. Салье. Ташкент, 1958. С. 128.
3. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Сочинения. Т. I. М.: Изд-во вост. лит., 1963. С. 218–220, 433.
4. Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. М.: Наука, 1973. 392 с.
5. Бернштам А.Н. Древняя Фергана. Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1951.
6. Бернштам А.Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // Материалы и исследования по археологии СССР (МИА). №26. М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1957. С. 237–247.
7. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Ч. II. М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1959. С. 319.
8. Буряков Ю.Ф., Бакиев Р.А., Дудаков С.А. Новые данные к истории горного дела и металлургии Северной Ферганы // История материальной культуры Узбекистана (ИМКУ). Вып. 25. Ташкент: Фан, 1991. С. 199–207.
9. Булатова В.А. Древняя Кува. Ташкент: Фан, 1972. С. 49.
10. Давидович Е.А. Из области денежного обращения на территории Ферганы // Труды Музея истории Узбекской ССР. Вып. 11. Ташкент, 1954. С. 39–52.
11. Заднепровский Ю.А. Древняя Фергана: дис. ... канд. ист. наук. Л., 1954.
12. Заднепровский Ю.А. Отчет о работах Ферганской экспедиции в 1983 г. // Архив Института археологии АН РУз.
13. Исамиддинов М.Х. Разведочные работы в Наманганской области // Археологические открытия 1983 года. М.: Наука, 1985. С. 531.

14. Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // ИМКУ. Вып. 7. Ташкент, 1966. С. 28–35.

15. Матбабаев Б.Х. Новый пункт на Великом Шелковом пути (на примере могильника Мунчактепа в Северной Фергане) // Тезисы докладов международного семинара ЮНЕСКО «Формирование и развитие Великого Шелкового пути в Центральной Азии в древности и средневековье». Ташкент, 1990. С. 108–110.

16. Матбабаев Б.Х. О возникновении и этапах развития города Пап (Баб) // Общественные науки в Узбекистане. 1994. №8. С. 59–63.

17. Матбабаев Б.Х. Оссуарии Ферганы // Общественные науки в Узбекистане. 1993. №2. С. 43–47.

18. Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет: Бронза. М.: Наука, 1982. С. 58.